

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA EPIK ASARLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI

*Usenbaeva Gozzal*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti*

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3v-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada epik asarlar va boshlang'ch sinflarda berilgan epik asarlarni o'qitish usullari haqida aytildi.

**Kalit so'zlar:** Epik asar, boshlang'ich sinf, o'quvchi, o'qituvchi, darslar.

Epik asarlar bu juda katta adabiyot asarlari hisoblanadi. Epik asarlarga roman, povest, ertak, hikoyalarni kirgizsak bo'ladi. Epik asarlardan boshlang'ich sinflarda eng ko'p qo'llaniladigani bular eratklar va hikoyalar hisoblanadi. Ertaklar boshlang'ich sinf o'quvchilari eng ko'p o'qiydigan epik asarlar hisoblanadi. O'qituvchilar o'quvchilarga ko'pincha ertak va hikoyalrni o'qishni topshirish kerak. O'quvchilar ertaklarga juda qiziqadi va ertaklar ham o'quvchilarning yoshiga mos kelishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda epik asarlar ustida ishslash metodikasi — bu o'quvchilarga badiiy matnni tushunish, tahlil qilish, obrazlarni ajratib olish va asardan axloqiy-mazmuniy xulosalar chiqarishni o'rgatish usullarining majmuasidir.

### 1. Asarni tanlash

Boshlang'ich sinflar uchun quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. Yoshga mos, tushunarli tilga ega bo'lishi;
2. Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi;
3. Qahramonlik, mehnatsevarlik, do'stlik, halollik kabi ijobiy g'oyalarga boy bo'lishi;
4. Hajmi jihatidan o'quvchining yoshi va psixologiyasiga mos bo'lishi.

### Misollar:

- Ertaklar: "Zumrad va Qimmat", "Bo'riboy va Toshbaqa"
- Dostonlardan parchalar: "Alpomish" (qisqartma ko'rinishda)
- Xalq og'zaki ijodi: rivoyatlar, afsonalar

### 2. O'qitish bosqichlari

#### A. Asarni o'qish

- O'qituvchi ifodali o'qib beradi yoki o'quvchilar bilan navbatma-navbat o'qiladi.
- Har bir bo'lim yoki sahna ortidan qisqacha muhokama qilinadi.

#### B. Matn ustida ishslash

- **Savol-javob** usuli bilan mazmuni aniqlanadi.
- Qahramonlar kimlar? Ular qanday fe'l-atvorga ega?
- Asardagi voqealar ketma-ketligi aniqlanadi.

- Asardagi asosiy g‘oya va xulosa ajratib olinadi.

### C. Tahlil qilish

- Voqealarni ketma-ketlikda aytib berish (plan tuzish).
- Qahramon obrazini ochib berish (ularning gap-so‘zлari, harakatlari asosida).
- Asarning ijobjiy va salbiy qahramonlari taqqoslanadi.

### D. Ijodiy topshiriqlar

- Ertak yoki asarga oxirgi qism yozish.
- Qahramonga maktub yozish.
- Rasm chizish yoki dramatizatsiya qilish.

## 3. Metodik usullar

- Rolga kirib o‘qish
- Rolli o‘yinlar (dramatizatsiya)
- Rasmlar asosida hikoya qilish
- Klaster, aqliy hujum (brainstorming)
- “Men bo‘lsam edi...” texnikasi (qahramon o‘rnida bo‘lsang, nima qilarding?)

## 4. Tarbiya bilan bog‘lash

Asar orqali o‘quvchilarga:

- Yaxshi va yomonni ajratish
- Mehr-shafqat, halollik, do‘stlik kabi qadriyatlar tushuntiriladi
- Hayotiy saboqlar chiqarish o‘rgatila

Ertakni o‘qitish metodikasi. Ertaklarni o‘qitish metodikasi - ertaklar olami bolalarning qiziqishini uyg‘otadigan eng muhim adabiy janrlar turiga kiradi. O‘quvchilarni ertakdagи chigal voqealar, qahramonlik harakatlari, topqirlilik harakatlari, topqirlilik, adolatli yondashuv, samimiylilik kabi xulq-atvorlari, asarning g‘oyaviy yo‘nalishlari - adolat, barcha o‘rinlarda yutuqlarga erishib boradi. Asar, birinchi boshlanishidanoq o‘quvchilarning fikr-tuyg‘ularini o‘ziga jalb etadi va hamma vaqt voqeadiji ijobjiy obraz tarafida bo‘lib, uning g‘alaba qilish istagida o‘tiradi. Ijobjiy, qahramonlarning samimiyligi, mehnatsevarligi, halol xulq-atvori o‘quvchida ijobjiy taassurot qoldiradi. Shuning uchun bularni tahlil qilganda ertakning yo‘nalishiga qarab tahlil qilish zarur. Bu karomatli kuchlar kimga yordam beradi, nima uchun, bu voqeanning qahramonlarga munosabati, ularning yaxshilik va yomonlik tomonlari va h.k. jihatlari hikoyalarni tahlil qilgandek bo‘lib keladi.

Asarning mazmuni oson o‘zlashtirilishiga e’tibor berib ketish yetarli emas. O‘qib turganda bolalar bilan o‘qituvchining oddiy muomala qilishi, ertakni o‘qishdagi asosiy shartlardan biri. O‘qib borayotganda o‘qituvchining so‘zi doimo o‘quvchilarga qaratilib, so‘zning jonli, sodda bo‘lib, o‘qishga barcha vaqtłari e’tibor berib, ertakning syujetining chigallashishiga, bo‘layotgan voqealarga go‘yo o‘zi qatnashib o‘tirgandek bo‘lib, qahramonlarining turmushiga, taqdiriga o‘qituvchi bilan birga qatnashib o‘tirishi shart. Agar o‘qituvchi badiiy qilib so‘zlab bersa asarning ta’sirchanligi avvalgidan ham o‘tkirroq holatga keladi.

Ertaklarni o‘qib ma’lum hajmda bilim olish bilan birga undan xalqimizning til boyliklarining turli namunalari bilan tanishadi, chunki ertakning tili - xalqimizning boy so‘zlashuv tili. Shuning uchun uning tilini o‘quvchilar to‘liq tushunishiga, ularni egallashiga e’tibor berish kerak. ertaklar o‘quvchilarning tilini o‘sirishdagi eng qiyin vosita hisoblanadi. Ertaklar matni - o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini shakllantirishda eng qulay material. Kichik yoshdagi bolalar ertaklardagi tasviriy vositalarni qo‘sib sintaktik uslublardan foydalanib hikoya qilib berishni yoqtiradilar. Shuning uchun o‘quvchilarning bunday qiziqishidan o‘qituvchi ustalik bilan foydalanib turishi kerak. Ertakni o‘qish bilan o‘z elining tabiatni, turmushi, urf-odati bilan tanishadi. Qiyinchilikni qanday yengish yo‘llarini o‘rganish bilan, o‘zi yaxshi odatlarga, mehribonlik tuyg‘ulariga taqlid qiladi. Undagi uchragan yaxshiliklarni o‘quvchilarning o‘zlari ham takrorlagisi keladi. Bu jihatdan olganda ertaklar o‘quvchilarning fikr-mulohazalarini, til boyligini o‘siradi, xolos.

Hikoya kichik hajmli adabiy janr bo‘lib, unda inson hayotidagi ma’lum bir voqeа hayotning muhim tomonlarini umumlashtirib aks ettiriladi. Hikoya ko‘pincha odam hayotida bo‘lgan bir epizodni tasvirlaydi. Uning mazmuni hayotdan olingan. Hikoya mazmuni boshlang‘ich sinf uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni qahramonning xatti-harakatlari, tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, voqeа-hodisalar haqidagi hikoyalar ko‘proq qiziqtiradi. Shuning uchun adabiy janr turi bo‘lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog‘lab olib boriladi.

Hikoya mazmunini o‘zlashtirish bo‘yicha matn asosida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Matn mazmuni bo‘yicha o‘qituvchi savollariga javob berish;
2. Suhbat matniga berilgan savol-topshiriqlarni bajarish;
3. Suhbat mazmuni bo‘yicha o‘quvchilarning savollar tuzishi;
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish;
5. Hikoya matnini qismlarga ajratish;
6. Har bir bo‘limga nom berish;
7. Suhbatga reja tuzish;
8. Reja asosida qayta hikoya qilish.
9. Reja asosida bayon yozish.

Xulosa qilib aytganda o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan mehrini oshirishda,darsga qiziqishini orttirishda epic asarlarning o’rni juda katta ahamiyatga ega. Epik asarlarga ko‘plagan asarlar kiradi, lekin boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ertak va hikoyalar o‘qib beriladi. O‘quvchilar katta roman va povestlarni o‘qib zerikadi. Chunki ularda faqat so‘zlar berilgan boladi. O‘quvchilar bo‘lsa rasmi asarlarga juda qiziqadi, o’sha rasmlar orqali ertak yoki hikoya mazmunini tushunib oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.
3. A.Pirniyazova, Q.Pirniyazov, Q.Bekniyazov Baslawish klaslarda ana tilin oqituv metodikasi Nokis «Bilim» baspası 2018-j